

## IJTIMOIIY TARMOQLAR VA XAVFLAR

*Andijon davlat pedagogika instuti ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchilari*

*Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich,*

*Jabborova Sayyoraxon Muxammadqobilovna.*

*Andijon davlat pedagogika instuti ona tili adabiyot ta'lim yo'nalishi 1-*

*bosqich talabalari*

*Hosiljonov Muhammadkarim Xusanboy o'g'li,*

*Umarova Mohlaroyim Abdullajon qizi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari batafsil yoritilgan. Asosan, ularning foydalanuvchilar uchun taqdim etadigan imkoniyatlari va olib keladigan xavflari, jumladan, maxfiylikning buzilishi, psixologik salbiy ta'sirlar, kiberxavfsizlik muammolari va salomatlikka ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu masalalarni o'rganish orqali ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish tavsiyalarini keltirib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy tarmoq, xavflar, internet, jamiyat, kiberxavfsizlik, psixologik ta'sir, onlayn maxfiylik.*

**Abstract:** *This article details the positive and negative aspects of social networks. In particular, it examines the opportunities they present to users and the risks they pose, including breaches of privacy, negative psychological effects, cyber security issues, and health impacts. By studying these issues, recommendations for the rational use of social networks are given.*

**Keywords:** *social network, risks, internet, society, cyber security, psychological impact, online privacy.*

**Аннотация:** *В данной статье подробно описаны положительные и отрицательные стороны социальных сетей. В частности, в нем рассматриваются возможности, которые они предоставляют пользователям, и риски, которые они представляют, включая нарушение конфиденциальности, негативные психологические последствия, проблемы*

кибербезопасности и влияние на здоровье. Путем изучения этих вопросов даются рекомендации по рациональному использованию социальных сетей.

*Ключевые слова:* социальная сеть, риски, Интернет, общество, кибербезопасность, психологическое воздействие, конфиденциальность в Интернете.

Hozirgi davrga kelib ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishi yuqori darajaga ko'tarildi va so'nggi o'n yillik ichida hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotiga yengillik olib kirishda, ish faoliyatini rivojlantirishda, uzoqdagi yaqinlar bilan aloqani tiklashda yaxshigina yordam bersa ham, uning insoniyatga xavfi kundan kunga kuchayib bormoqda. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida, onlayn xulq-atvor muammolari, kiberhujumlar va manipulyatsiya kabi tahdidlar avj oldi. Bunday xavflarni bartaraf etish uchun ko'plab chora-tadbirlar ko'rilayotgan bo'lsada, ularning ko'p qismi samarasiz ketmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizga kirib kelgandan beri yumushlarimizning ko'p qismi yengilladi desak adashmagan bo'lamiz. Ijtimoiy tarmoqlar, odatda, odamlar o'rtasida tezkor va samarali aloqalarni o'rnatish, yangiliklarni tarqatish va fikr almashish uchun keng qo'llanilmoqda. Internet hayotimizning har sohasida o'zini ko'rsatib, yetarlicha nom qozonib ulgurdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar sababli turli xil qog'zbozliklarga chek qo'yilib kelinmoqda. Bunga misol qilib ko'plab ishlarni keltirishimiz mumkin. Hattoki shahodatnoma, diplom va sertifikatlar ham onlayn tarzda taqdim etilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar dastlab oddiy aloqa vositasi sifatida yaratilgan bo'lsada, ularning funksiyalari tez sur'atlar bilan kengayib bordi. Hozirda ular axborot tarqatish vositasi sifatida keng foydalaniladi. Masalan, katta korporatsiyalar va kichik bizneslar reklama qilish uchun aynan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Shu bilan birga, siyosiy va ijtimoiy harakatlar ham ijtimoiy tarmoqlarning kuchidan samarali foydalanmoqda. Misol uchun, ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan axborotlar katta siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan birga yangi xavf-xatarlar paydo bo'lmoqda. Ularning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, salbiy jihatlari ham o'rganish lozim. Chunki zamonaviy texnologiyalar bilan birga kelgan imkoniyatlar noto'g'ri qo'llanilgan taqdirda, katta muammolarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning har sohaga kirib kelgani haqida ko'p gapirdik, ho'sh ularning ta'lim jarayonida o'rni qanday? Ijtimoiy tarmoqlar kirib kelishidan oldin ma'lumotlarni topish, tarqatish biroz qiyinchilik tug'dirgan. Chunki qog'ozlar bilan ishlash ozroq murakkab ish bo'lgan, ammo hozirgi kunga kelib kitoblar, o'quv darsliklari va hujjatlar ham onlayn shaklga o'tdi. Buning qulaylikari sifatida ortiqcha qiyinchiliklarsiz darsliklarni topishni, ortiqcha izlashlarsiz kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishni keltirishimizni mumkin. Talabalar va o'qituvchilar uchun bu platformalar bilim olish va ulashish imkoniyatini kengaytiradi. Ko'plab onlayn darslar, seminarlar va treninglar aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etiladi. Jamoat guruhlari va forumlar orqali bir-biridan foydali ma'lumotlar olish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir muhim afzalligi bu ularning tadbirkorlikni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilishi. Reklama, mijozlar bilan muloqot va mahsulotlarni targ'ib qilish uchun ular juda samarali.

Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarning asosiy aks etishi aloqa-munosabat sifatidagi vazifalarida yaqqol ko'rinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari ko'plab sohalarda o'z aksini topmoqda. Eng avvalo, ular insonlarni birlashtirishda katta ahamiyatga ega. Dunyoning istalgan burchagida bo'lgan insonlar bir necha soniya ichida bir-birlari bilan muloqot qilishi yoki o'z fikrlarini ulashishi mumkin. Masalan, uzoq masofadagi do'stlar va oila a'zolari bilan muntazam aloqada bo'lish imkoniyati, shuningdek, yangi tanishlar topish imkoniyati ham mavjud. WhatsApp, Instagram, Telegram, Facebook, kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali uzoqdagi yaqinlar bilan aloqa o'rnatishimiz, do'stlar orttirishimiz, dunyo bo'ylab axborot olishimiz mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o'z qiziqishlariga mos bo'lgan kontent topishlari va ko'ngilochar ma'lumotlardan bahramand bo'lishlari mumkin. Masalan, musiqiy videolar, o'yinlar yoki ta'limiy kontentlar kabi materiallar ko'pchilikning sevimli mashg'ulotiga aylangan. Shu bilan birga, ular jamiyatda ijtimoiy masalalarni ko'tarish va yechim topish uchun kuchli vositaga aylangan.

Ijtimoiy tarmoqlarning foydali taraflari bo'lganidek salbiy taraflari ham yetarlicha. Eng asosiy muammolardan biri bu vaqtni samarasiz sarflashdir. Ko'p foydalanuvchilar soatlab ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazib, real hayotdagi vazifalarini unutib qo'yadi. Natijada, bu ularning o'qish, ish faoliyati va shaxsiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi muhim xavf bu ijtimoiy tarmoqlardagi axborotning ishonchliligi masalasidir. Hozirgi kunda yolg'on xabarlar, soxta ma'lumotlar va manipulyatsion kontent ko'payib bormoqda. Bu holat odamlarning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, pandemiya yoki siyosiy voqealar paytida noto'g'ri ma'lumot tarqalishi jiddiy oqibatlariga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarning shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida qolishi ham katta muammo hisoblanadi. Ko'p hollarda foydalanuvchilar o'z shaxsiy ma'lumotlarini platformalarga yuklaydi, lekin bu ma'lumotlar qanday himoya qilinishi haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Xakerlik hujumlari, ma'lumotlarning o'g'irlanishi yoki noqonuniy maqsadlarda ishlatilishi xavfi mavjud. Shu sababli, har bir foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini himoya qilish choralarini ko'rishi zarur.

Ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'rolmaslik hissini yuzaga keltirishini bir ovozdan tasdiqladi. Ana shunday tadqiqotlardan birining mualliflari quyidagi xulosaga keldi:

“Birgina Facebook shunchalik ko'p hasad hissini yuzaga keltiradiki, uni salbiy hissiyotlar o'chog'i sifatida qabul qilish mumkin”.

Yana bir tadqiqotda hasad qilish tuyg‘usi va Facebook-depressiya o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi va tushkunlik aynan hasad tufayli yuzaga kelishi aniqlandi. Ya’ni kishi o‘z hasadini nazorat qila olsa, Facebook tushkunlikka olib kelmaydi. Bu Facebook-depressiyaning sababi aynan hasad ekanligini anglatadi.<sup>1</sup>

### **Axborot xavfsizligi muammolari.**

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab muammolarga ega. Shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi, noqonuniy maqsadlarda ishlatilishi va tarqatilishi bugungi kunda dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Foydalanuvchilarning ko‘pchiligi o‘z ma’lumotlarini platformalarga yuklashdan oldin xavfsizlik choralari yetarlicha tushunmaydi. Shu sababli, bu ma’lumotlar xakerlar yoki boshqa zararli shaxslar tomonidan suiiste’mol qilinishi mumkin.

Masalan, katta kompaniyalar tomonidan foydalanuvchilarning ma’lumotlarini tijorat maqsadlarida sotish holatlari aniqlangan. Bu esa foydalanuvchilarning maxfiyligini buzib, ularning huquqlarini cheklashga olib keladi. Shu sababli, foydalanuvchilar o‘z shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun kuchli parollarni tanlash, ikki bosqichli autentifikatsiya qo‘llash va shubhali havolalarni bosmaslik kabi choralarni ko‘rishlari lozim.

### **Kiberbulling va psixologik muammolar**

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirlaridan biri bu kiberbulling hodisasining kengayishidir. Kiberbulling - bu onlayn muhitda boshqa foydalanuvchilarga tahdid qilish, haqorat qilish yoki ularni xo‘rlash bilan bog‘liq jarayon. Bu hodisa ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ko‘pincha jiddiy psixologik muammolarga olib keladi. Kiberbulling natijasida jabrlanuvchilar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi, depressiya yoki tashvish holatlariga tushib qolishi mumkin.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihati>

<sup>2</sup> Smith, J. (2020). *The Psychological Impact of Social Media*. New York: Academic Press.

Buning asosiy sababi anonimlikni ta'minlovchi platformalarning mavjudligidir. Foydalanuvchilar anonim tarzda boshqa odamlarni haqorat qilish yoki ularga zarar yetkazish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu holatni boshdan kechirgan odamlarning aksariyati yordam so'rashga qo'rqishadi, chunki ular kiberbullingni jiddiy muammo deb hisoblamaydi yoki yordam so'rash natijasida yanada katta bosimga duch kelishidan xavfsirashadi.<sup>3</sup>

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarni ortiqcha ishlatish insonlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, doimiy ravishda boshqa odamlarning muvaffaqiyatlari yoki ko'ngilochar hayotini kuzatish o'z hayotidan norozilik hissini uyg'otadi.

### **Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri**

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlar hayotida juda katta o'rin egallaydi. Deyarli har bir o'smir va yosh katta vaqtini Facebook, Instagram, TikTok yoki Telegramda o'tkazmoqda. Bu esa ularning rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy tomonlari mavjud bo'lsa-da, ular yoshlarning kundalik hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni ham keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'z bilimlarini oshirishi, dunyo yangiliklari bilan tanishishi yoki yangi qiziqarli do'stlar topishi mumkin. Shuningdek, ular o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyish etish uchun platformalar yaratmoqda. Masalan, TikTok va YouTube orqali ko'plab yoshlar o'zlarining ijodiy videolarini yoki qiziqarli g'oyalarini namoyish etmoqda. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va kelajakda ularga kasbiy imkoniyatlar ochadi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri ham sezilarli darajada katta. Yoshlar ko'pincha tarmoqlarda haddan tashqari ko'p vaqt sarflashadi, bu esa ularning real hayotdagi muloqot qobiliyatlarini pasaytirishi mumkin. Bundan

---

<sup>3</sup> Anderson, M., & Jiang, J. (2018). "Teens, Social Media & Technology 2018". Pew Research Center.

tashqari, yoshlar orasida turli xil virtual muammolar – kiberbulling, yolgʻon axborotga ishonish yoki psixologik bosimni his qilish – keng tarqalgan. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi mukammal hayot tasvirlari boshqa foydalanuvchilarning oʻzlarini yomon his qilishiga sabab boʻladi.<sup>4</sup>

Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir xavfi – bu yoshlarning shaxsiy maʼlumotlari xavfsizligi bilan bogʻliq muammolar. Koʻplab yoshlar oʻz maʼlumotlarini ochiq-oydin ulashadi, lekin bu maʼlumotlar qanday himoyalanganini tushunishmaydi. Bu esa ularni xakerlik hujumlariga yoki shaxsiy hayotga aralashuvga duchor qilishi mumkin.

### **Oilalar va jamiyatga taʼsiri**

Ijtimoiy tarmoqlar faqat yoshlar hayotiga emas, balki butun oilalar va jamiyatga ham taʼsir koʻrsatmoqda. Bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlar oilaviy aloqalarni mustahkamlash uchun imkoniyat yaratadi. Masalan, uzoq masofadagi qarindoshlar bilan muntazam muloqot qilish, muhim voqealarni baham koʻrish va birgalikda onlayn tadbirlarda ishtirok etish imkonini beradi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari ishlatilishi oiladagi real muloqotning kamayishiga olib keladi. Koʻplab ota-onalar va bolalar koʻpincha uyda birga boʻlishlariga qaramay, virtual olamga berilib ketib, bir-birlari bilan yetarlicha muloqot qilmaydi. Bu esa oilaviy munosabatlarga salbiy taʼsir koʻrsatadi va tushunmovchiliklarga sabab boʻladi.

Jamiyat miqyosida ijtimoiy tarmoqlar fikrlarni shakllantirishda va ijtimoiy harakatlarni boshqarishda katta rol oʻynamoqda. Ular orqali koʻplab ijtimoiy masalalar muhokama qilinadi va muayyan masalalarda umumiy qarash shakllanadi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda ijtimoiy tarmoqlar manipulyatsiya vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, notoʻgʻri axborot tarqatish yoki odamlarni fitnalarga chorlash holatlari kuzatilmoqda.

---

<sup>4</sup> Johnson, L., & Lee, K. (2019). *Cybersecurity in the Digital Age*. London: TechWorld Publications.

## **Ijtimoiy tarmoqlarda do‘stlaringizning ko‘pligi, faol ijtimoiy hayot olib borayotganingizni anglatmaydi.**

Bir necha yil oldin o‘tkazilgan tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardagi ko‘p sonli do‘stlar kishi faol ijtimoiy hayot olib borayotganligini anglatmasligini ko‘rsatdi. Shunday xulosa chiqarish mumkin: miya o‘zida qancha do‘stlik aloqalarini sig‘dira olishi borasida allaqanday cheklov mavjud va do‘stlikni saqlash uchun kishilar bilan virtual emas, real hayotda muloqot qilish zarur. Shuning uchun Facebook’dan foydalanish jonli muloqot o‘rnini bosmaydi.

Yolg‘izlik hissi ko‘plab ruhiy va jismoniy muammolarni keltirib chiqarishini hisobga olsak, jonli muloqot inson salomatligi uchun muhim zarurat hisoblanadi. Virtual do‘stlar bilan o‘tkazilgan vaqt jonli muloqot kabi davo samarasini ko‘rsatmaydi.<sup>5</sup>

Joriy yilda Avstraliya federal hukumati bolalarning ijtimoiy tarmoqlarga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun qonun joriy etishini ma’lum qildi, deb yozadi Variety.

Minimal yosh hali aniqlanmagan. Avstraliya bosh vaziri Entoni Albanezening so‘zlariga ko‘ra, hukumat 14–16 yoshgacha bo‘lgan bolalarning Instagram va TikTok’dan foydalanishini taqiqlash masalasini ko‘rib chiqmoqda, uning o‘zi esa minimal yoshni 16 yosh qilib belgilashni ma’qul ko‘radi.

“Men bolalar o‘z gadjetlaridan uzoqlashib, futbol maydonlari, basseynlar va tennis kortlariga chiqishlarini istayman. Biz ularning haqiqiy odamlar bilan haqiqiy tajribaga ega bo‘lishlarini istaymiz”, — dedi Albanese.

Hukumat hozirda yoshni tekshirish usullarini sinovdan o‘tkazmoqda va yakunda minimal yosh chegarasini joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Qonun loyihasi mahalliy qoidalardagi farqlarni oldini olish uchun butun mamlakat shtatlari bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Agar qonun qabul qilinsa, Avstraliya ijtimoiy tarmoqlarda yosh chegarasini joriy etgan dunyodagi ilk davlatlardan biriga aylanadi. Avvalgi, jumladan, Yevropa Ittifoqining urinishlari internetda voyaga yetmaganlar

<sup>5</sup> <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihati>



huquqlarini cheklashga doir shikoyatlar tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragandi, deya qayd etadi Reuters.

- Mart oyida AQShning Florida shtatida 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ijtimoiy tarmoqlarda akkaunt ochishni taqiqlovchi qonun qabul qilingan edi. Cheklovlarni buzgan kompaniyalar 50 ming dollargacha jarimaga tortiladi. Ushbu choralar AQShdagi eng keskin choralardan biriga aylandi.

- Xitoy hukumati ham 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mobil qurilmalarda internetdan foydalanish vaqtini cheklashni rejalashtirgandi. O‘tgan yilning avgust oyida ular internet-kontentni bolalar yoshiga qarab taqsimlash qoidalarini joriy qilgan edi.<sup>6</sup>

### **Xulosa va tavsiyalar.**

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, ularning ta‘sirini to‘g‘ri baholash muhimdir. Ularning ijobiy tomonlarini to‘g‘ri foydalanib, salbiy ta‘sirlarni minimallashtirish uchun chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Bu jarayonda ham jamiyat, ham har bir shaxs mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Birinchiidan, foydalanuvchilar o‘z vaqtini to‘g‘ri boshqarishlari va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha berilmasliklari lozim. Ikkinchiidan, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishga alohida e‘tibor qaratish zarur. Kuchli parollarni ishlatish, shubhali havolalarni ochmaslik va maxfiylik sozlamalarini to‘g‘ri tanlash – bular asosiy qoidalardir.

Uchinchiidan, yoshlar va bolalar uchun ijtimoiy tarmoqlarni nazorat qilish va ularga ta‘sir ko‘rsatayotgan salbiy omillarni tushuntirish muhimdir. Ota-onalar va o‘qituvchilar yoshlarning virtual hayotini kuzatib borishlari va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishlari kerak.

<sup>6</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/11/australia/>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihati>
2. Smith, J. (2020). *The Psychological Impact of Social Media*. New York: Academic Press.
3. Anderson, M., & Jiang, J. (2018). "Teens, Social Media & Technology 2018". Pew Research Center.
4. Johnson, L., & Lee, K. (2019). *Cybersecurity in the Digital Age*. London: TechWorld Publications.
5. <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilgan-xavfli-jihati>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/11/australia/>
7. Symantec. (2019). *Internet Security Threat Report*. Symantec Corporation.
8. Tuten, T. L., & Solomon, M. R. (2017). *Social Media Marketing*. Pearson.
9. Boyd, D. (2014). *It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens*. Yale University Press.
10. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). "Users of the World, Unite! The Challenges and Opportunities of Social Media." *Business Horizons*, 53(1), 59-68.
11. Turkle, S. (2015). *Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age*. Penguin Press.
12. Livingstone, S., & Sefton-Green, J. (2016). *The Class: Living and Learning in the Digital Age*. New York University Press.
13. Fuchs, C. (2017). *Social Media: A Critical Introduction*. Sage Publications.
14. Castells, M. (2009). *Communication Power*. Oxford University Press.
15. Jabborova, S., Erkinova, I., & Shokirova, Z. (2024). VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
16. Jabborova, S., Mirzadavlatova, U., & Kozimova, G. (2024). TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA AXBOROTNING O’RNI VA AHAMIYATI. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).

17. Jabborova, S., Ismatillayeva, I., Fozilova, R., & Sultonboyev, A. (2024). **TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING ISTIQBOLLARI**. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
18. .Jabborova, S., Daminjonova, S., Ismoilova, G., & Mamatqodirova, M. (2024). **AXBOROTNING INSON HAYOTIGA TA'SIRI**. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
19. .Jabborova, S., Olimjanova, H., & Shodmonova, S. (2024). **INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH-DAVR TALABI**. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
20. Bahodir o'g'li, V. S. (2024). **YURTIMIZDA ARABLAR BOSQINI VA ISLOM DININING KIRIB KELISHI**. *WORLD OF SCIENCE*, 7(10), 40-44.
21. .Asadbek, M., & Davronbek, I. (2023). **O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING KAFOLATI**. *Ustozlar uchun*, 24(1), 204-207.
22. Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). **O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**. *Journal of new century innovations*, 29(4), 115-120.